



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH TIZIMI: MAXSUS MAKTAB-INTERNATLAR VA MAXSUS TEXNIKUMLAR FAOLIYATI

**Respublika imkoniyati cheklangan shaxslar uchun
ixtisoslashtirilgan maxsus texnikumning
fizika va astronomiya fani o'qituvchisi
Qurbonov Sirojiddin Bo'ron o'g'li**

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada O'zbekiston Respublikasida imkoniyati cheklangan bolalar uchun tashkil etilgan ixtisoslashtirilgan maxsus maktab-internatlar hamda maxsus texnikumlar faoliyati, ularning o'zaro hamkorligi va bitiruvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimi yoritilgan. Shuningdek, respublika bo'ylab maxsus texnikumlar tomonidan maxsus maktab-internatlarida olib borilayotgan proforientatsiya ishlari, o'quvchilarni kasb tanlashga tayyorlash, ularning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash bo'yicha amalga oshirilayotgan amaliy faoliyat tahlil qilingan. Maqolada imkoniyati cheklangan yoshlarni jamiyatga moslashtirish va ularning bandligini ta'minlashning dolzarb jihatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: imkoniyati cheklangan bolalar, maxsus maktab-internat, maxsus texnikum, proforientatsiya, kasb-hunar ta'limi, inklyuziv ta'lim, kasbiy yo'naltirish, ijtimoiy moslashuv.

Kirish

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida imkoniyati cheklangan bolalarni qo'llab-quvvatlash, ularning sifatli ta'lim olishi va kasb-hunar egallashi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Ayniqsa, maxsus ta'lim tizimini takomillashtirish hamda bitiruvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Respublikamizda ko'rishida, eshitishida, tayanch-harakat tizimida nuqsoni bo'lgan hamda aqliy rivojlanishida o'ziga xos xususiyatlarga ega bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus maktab-internatlar faoliyat yuritmoqda. Ushbu ta'lim muassasalari o'quvchilarning umumiy bilim olishlari bilan bir qatorda ularni mustaqil hayotga tayyorlash va mehnat ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

So'nggi yillarda imkoniyati cheklangan yoshlarni kasb-hunar ta'limiga jalb etish maqsadida maxsus texnikumlar tomonidan respublika hududlaridagi maxsus maktab-internatlarida keng ko'lamli proforientatsiya ishlari amalga oshirilmoqda. Bu esa o'quvchilarning kelajak kasbini ongli ravishda tanlashiga yordam bermoqda.

O'zbekiston Respublikasida imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim olish huquqi qonun bilan kafolatlangan. Jumladan:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun;



- “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonun;
- Inklyuziv ta‘lim konsepsiyasi;
- Prezident farmon va qarorlari.

Mazkur hujjatlar asosida maxsus ta‘lim muassasalari faoliyati yo‘lga qo‘yilib, imkoniyati cheklangan yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Maxsus maktab-internatlar imkoniyati cheklangan bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan ta‘lim muassasalari hisoblanadi. Bu yerda maxsus pedagogik yondashuv korreksion mashg‘ulotlar logopedik xizmatlar psixologik yordam mehnat ta‘limi darslari tashkil etiladi.

Mazkur maktablarning asosiy vazifasi o‘quvchilarning bilim olishi bilan birga ularni jamiyatga moslashtirish va kelajak kasbiga tayyorlashdan iboratdir.

Ayniqsa, 9- va 11-sinf bitiruvchilari bilan olib boriladigan kasbiy yo‘naltirish ishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda Respublika imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus texnikum tomonidan maxsus maktab-internatlari bilan hamkorlikda keng qamrovli proforientatsiya ishlari olib borilmoqda. Mazkur ishlarning asosiy maqsadi — bitiruvchi o‘quvchilarning qiziqishi, qobiliyati va salomatlik imkoniyatidan kelib chiqib ularni mos kasblarga yo‘naltirish hamda maxsus texnikumlarga jalb etishdan iborat. So‘nggi yillarda imkoniyati cheklangan yoshlarni kasb-hunarga jalb qilish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar natijasida maxsus texnikumlarga hujjat topshirayotgan bitiruvchilar sonida ijobiy o‘sinh kuzatilmoqda. Bu holat, avvalo, maxsus texnikumlarda o‘quvchilar hamda ularning ota-onalari talab va takliflari asosida yangi kasbiy yo‘nalishlarning bosqichma-bosqich tashkil etilayotgani bilan izohlanadi. Amaliy o‘rganishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘quvchilar ko‘proq amaliyotga yaqin va kelajakda daromad manbaiga aylanishi mumkin bo‘lgan kasblarga qiziqish bildirmoqda. Shu sababli Respublika imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus texnikumida yangi ta‘lim yo‘nalishlarini ochish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2026–2027-o‘quv yilidan boshlab qizlar uchun kashtachilik yo‘nalishini tashkil etish rejalashtirilgan. Mazkur yo‘nalish milliy hunarmandchilikni rivojlantirish bilan birga o‘quvchilarning uy sharoitida ham mustaqil faoliyat yuritish imkoniyatini oshiradi. Shuningdek, o‘quvchilarning qiziqishi va mehnat bozoridagi ehtiyojlardan kelib chiqib oshpazlik, zargarlik hamda sartaroshlik kabi yangi yo‘nalishlarni ochish ishlari olib borilmoqda. Ushbu kasblar amaliy ko‘nikmaga asoslangani sababli imkoniyati cheklangan yoshlarning bandligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Proforientatsiya tadbirlari davomida ayrim o‘quvchilar aynan amaliy kasblarga qiziqish bildirayotgani, ota-onalar esa farzandining kelajakda mustaqil kasb egasi bo‘lishini istashi kuzatildi. Shu jihatdan maxsus texnikumlarda zamonaviy va amaliy yo‘nalishlarning ochilishi yoshlarning kasb tanlash imkoniyatini kengaytirib, ularning jamiyatga moslashuviga xizmat qilmoqda.

Maxsus texnikumlarning pedagog va mutaxassisleri respublikaning turli hududlaridagi maxsus maktab-internatlariga tashrif buyurib, bitiruvchi o‘quvchilar bilan uchrashuvlar o‘tkazmoqda.



Ushbu uchrashuvlarda texnikumlarda mavjud yo'nalishlar haqida ma'lumot beriladi va kasblarning afzalliklari tushuntiriladi. O'quvchilarning qiziqishlari o'rganilib savol-javob va suhbatlar tashkil etiladi. Bu esa o'quvchilarning kelajakdagi kasbi haqida aniq tasavvurga ega bo'lishiga yordam bermoqda.

Texnikum mutaxassislari tomonidan Apparat va dasturiy ta'minot sozlovchisi, Kashtachi, Moda va tikuv ishlab chiqarish texnologiyasi, Oshpaz, Poyabzallarni ta'mirlash, Raqamli va smart maishiy texnika jihozlariga servisi, Bog'bon, 11- sinf negizida Axborot tizimlari (tarmoqlar bo'yicha), Charm va mo'ynali mahsulotlar tayyorlash, Tikuv mahsulotlari modeler- konstruktori, Teleredioappaturalarni ta'mirlash, Zargarlik, Santexnika isitish va konditsionerlar maxanigi kabi yo'nalishlar bo'yicha amaliy ko'rgazmalar tashkil etilmoqda.

Amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Bitiruvchilarning qiziqishi qobiliyati psixologik holati sog'lig'i tahlil qilinib, ular uchun mos kasblar tavsiya etilmoqda. Bu jarayonda psixologlar, defektologlar va pedagoglar hamkorlikda ish olib bormoqda. Kasb tanlash jarayonida ota-onalarning ham roli muhim hisoblanadi. Shu sababli maxsus texnikumlar tomonidan ota-onalar bilan davra suhbatlari va seminarlar tashkil qilinmoqda. Ota onalarga texnikumlardagi imkoniyatlar, kasb egallashning ahamiyati, kelajakdagi ish o'rinlari haqida tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Bitiruvchi o'quvchilar uchun maxsus texnikumlarga sayohatlar uyushtirilib, ular o'quv jarayoni, ustaxonalar va amaliyot xonalari bilan yaqindan tanishtirilmoqda. Bu esa yoshlarning texnikum hayotiga moslashuvini osonlashtirmoqda. Kasbiy yo'naltirish jarayonida individual yondashuv asosiy tamoyil hisoblanadi. Har bir o'quvchining: fiziologik imkoniyati, psixologik holati, qiziqishi va mehnatga moyilligi inobatga olinadi. Psixologik qo'llab-quvvatlash orqali o'quvchilarda o'ziga ishonch, mustaqillik, mehnatsevarlik, kelajakka intilish hissi shakllantiriladi. Kasbiy yo'naltirish ishlari yoshlarni jamiyatda o'z o'rnini topishiga xizmat qiladi.

Imkoniyati cheklangan yoshlarni kasb-hunarga o'qitishda maxsus texnikumlar muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda ushbu texnikumlarda quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ta'lim berilmoqda:

tikuvchilik, apparat va dasturiy ta'minot sozlovchisi, teleredioappaturalarni ta'mirlash, maishiy texnika jihozlarini ta'mirlash, poyabzal ishlari ustasi, to'quvchilik, bog'-istirohat landshaft dizayneri. Texnikumlarda nazariy bilim bilan birga amaliy mashg'ulotlarga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu esa bitiruvchilarning mehnat bozoriga tayyor mutaxassis sifatida chiqishiga xizmat qilmoqda. Imkoniyati cheklangan yoshlarni kasb-hunarga jalb etish quyidagi natijalarni bermoqda: yoshlarning bandligi ta'minlanmoqda, iqtisodiy mustaqillik shakllanmoqda, jamiyatga moslashuv kuchaymoqda, ijtimoiy faollik oshmoqda o'ziga bo'lgan ishonch mustahkamlanmoqda.

Kasb egallagan yoshlar kelajakda o'z oilasi va jamiyatiga foyda keltiruvchi shaxs sifatida shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasida imkoniyati cheklangan bolalarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimi bosqichma-bosqich takomillashib





bormoqda. Maxsus maktab-internatlar va maxsus texnikumlar o'rtasidagi hamkorlik yoshlarning kelajak kasbini ongli ravishda tanlashida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, maxsus texnikumlar tomonidan respublika hududlaridagi maxsus maktab-internatlarida olib borilayotgan proforientatsiya ishlari o'quvchilarning qiziqishi va qobiliyatini aniqlash, ularni mos kasblarga yo'naltirish hamda kasb-hunar ta'limiga qamrab olishda samarali natija bermoqda. Kelgusida mazkur tizimni yanada rivojlantirish orqali imkoniyati cheklangan yoshlarning jamiyatlardagi faolligini oshirish, ularning bandligini ta'minlash va mustaqil hayotga tayyorlash imkoniyati kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
3. "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonun.
4. Inklyuziv ta'lim konsepsiyasi.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'limga oid qarorlari.
6. Xoliqov A. "Maxsus pedagogika asoslari". Toshkent, 2021.
7. Po'latov P. "Defektologiya va logopediya". Toshkent, 2020.
8. Maxsus texnikumlar faoliyatiga oid ilmiy-uslubiy materiallar.

